

Tanlov komissiyasi "O'zkimyosanoat" Ajda ma'naviy-ma'rifiy masalalar bo'yicha tashkil etilgan ishlar bilan tanishdi

// 15 July 2022 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/tanlov-komissiyasi-jamiyatda-manaviy-marifiy-masalalar-buyicha-tashkil-etilgan-ishlar-bilan-tanishdi>



O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 12-apreldagi "Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni namunali yo'lga qo'yish bo'yicha an'anaviy tarzda o'tkaziladigan "Eng namunali vazirlik va idora" hamda "Eng namunali tuman va shahar" tanlovlarini o'tkazish to'g'risidagi nizomlarga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida" 78-son bayonnomasiga asosan "O'zkimyosanoat" AJ respublika tanlovining "Eng namunali vazirlik va idora" nominatsiyasida ishtirok etish maqsadida buyurtma bergan edi. Joriy yilning 14-iyul kuni tanlov komissiyasi Jamiyatda ma'naviy-ma'rifiy masalalar bo'yicha tashkil etilgan ishlar bilan tanishdi.









